


**O'zbekiston  
Respublikasining  
chakana savdo  
tovar aylanmasi  
(2018 yil  
yanvar-avgust)**


Respublika bo'yicha joriy yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 81 249,1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,6 foizga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 10 564,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 19,1 foiz), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 60 194,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 3,6 foiz) hamda uyushmagan savdoda tovar aylanmasi 10 490,1 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,3 foizga kamaygan) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida  
chakana savdo  
tovar aylanmasi  
hajmi  
(mlrd. so'm)**




2017 yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Buxoro, Jizzax, Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida qayd etildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasining o`rish sur`atlari (%) da)**




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o`rgan yilning mos davriga nisbatan 19,1 foizga o`tdi va 10 564,3 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 13,0 foiz ulushiga to`g`ri keladi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi (foizda)**  
(2018 yilning yanvar-avgust holatiga)



Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 60 194,7 mlrd. so`mni tashkil etib, 2017 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 3,6 foizga o`shishga erishdi. Respublika miqiyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 74,1 foizga teng kelmoqda.

*Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining respublika chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi (%da)*



2018 yil yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi respublika bo`yicha aholi jon boshiga 2 478,7 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 2,8 foizga ko`paygan. Ushbu ko`rsatkich respublika hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

## Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>O`zbekiston Respublikasi</b>	2 478,7	102,8
Qoraqalpog`iston Respublikasi	1 414,7	103,9
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	2 123,9	102,3
Buxoro	2 665,2	105,1
Jizzax	2 073,5	104,7
Qashqadaryo	1 764,0	102,7
Navoiy	3 389,9	103,2
Namangan	1 831,6	102,8
Samarqand	1 818,4	102,5
Surxondaryo	2 079,6	101,5
Sirdaryo	1 784,2	102,6
Toshkent	2 992,0	101,8
Farg`ona	1 954,4	102,6
Xorazm	1 750,6	103,5
Toshkent sh.	7 391,3	102,7

**O`zbekiston Respublikasining ulgurji savdo tovar aylanmasi**  
(2018 yil yanvar-avgust)

Jadvaldan ko`rinib turibdiki, respublikaning barcha hududlarida aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi hajmi o`tgan yilning shu davriga nisbatan oshgan. Boshqa hududlarga nisbatan ushbu ko`rsatkich Toshkent shahri (7391,3 ming so`m), Navoiy viloyati (3389,9 ming so`m) va Toshkent viloyatida (2992,0 ming so`m) sezilarli darajada yuqori bo`lib, buni ushbu hududlarda yirik savdo va sanoat

korxonalarining joylashganligi bilan izohlash mumkin.

2018 yilning o'tgan davri mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,8 foizni tashkil etib, 2263,1 mlrd. so'mga yetdi yoki o'tgan yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 1,4 foizga o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 85,9 foiz ulushi kichik tadbirkorlik sub'ektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

Yil boshidan respublika bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 35488,4 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2017 yilning shu davriga nisbatan 6,6 foizga o'sdi.

Ulgurji tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan quyidagi hududlarning o'sish sur'atida kamayishi kuzatildi: Qashqadaryo viloyati -94,5 %, Samarqand viloyati – 99,2 %, Farg'ona viloyati -99,5 %.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 4,6 foizga oshdi va 23616,3 mlrd. so'mga yetib, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 66,5 foizni tashkil qildi.

*Hududlar kesimida  
ulgurji savdo tovar  
aylanmasining  
o'tgan yilga  
nisbatan o'zgarish  
sur'atlari (%da)*

